

AYOLLAR MAVSUMIY KLASIK LIBOSLARI

^{1.} SH. Maqsudov

^{2.} G. Mamadjanova

^{1.} NamMTI professori

^{2.} NamMTI magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567448>

Annotatsiya. Maqolada, Ayollar klassik liboslari kiyimlaridagi asosiy kamchiliklar o'rganilgan. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari izlangan va samaradorligi yuqori bo'lgan taklif berilgan.

Kalit so'zlar: kiyim, klassik uslub, ingliz uslub, ingliz kostyumi, yangi klassika, uslub favoriti, redingot, tipaviy qomatlar, balans nuqsonlari.³

Kirish. Mamlakatimizda yildan yilga kiyim assortimenti va sifatiga bo'lgan talablar oshib bormoqda. Yuqori sifatli, moda yo'nalishiga va eng yaxshi xorijiy namunalarga muvofiq bo'lgan kiyimlarni tikuv jarayonining barcha bosqichlarida, shu jumladan konstruksiyalash va modellash bosqichida ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llamay ishlab chiqarib bo'lmaydi.

Klassik (odmiy, ishbilarmon, elegant) uslubiga modaga deyarli sig'inmaydigan, turg'un vaqt davomida tanlangan, deyarli o'zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimni mantiqaligi. Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni uziga sifati bilan tortadi. Klassik uslubini asosida, uni ba'zi elementlarini kombinatsiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Klassik uslubga libosning barcha elementlarini kiritish mumkin. Yangi klassika, odatiy shakllarning sipoligini yo'qotdi – modellar yumshoq, tabiiy va oliyjanob. Ammo, avvalgidek klassika detallarni minimumi bilan farqlanadi. Ko'pincha materiallar erkaklar modasida o'zlashtirilgan – bu reps, gabardin, poplin va flanel, yupqa klassik yo'l –yo'l va "yolochka", yumshoq jun gazlamalari. Uslub favoriti – shim va yubka, nimcha bilan klassik kostyum.

Kiyimda klassik uslubni tipik na'munasi – ingliz uslub. Bu uslub uch asr maboynida rivojlanadi va modani inijqligiga qaramasdan o'z ommabopligini yo'qotmadi. "Ingliz kostyum" tushunchasi XU111 asrda paydo bo'lgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi bo'yicha sipo kiyim uslubi yuzaga kelgan.

XX asrni 80–chi yillarida otda yurish kostyum juda ommabop bo'lgan: movutdan frak, redingot – etagi to'g'ri ustki kiyim, tor pantolonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo'ldi.

Ingliz uslub ayollar kostyumiga xam ta'sir etdi: silueti o'zgardi, ayollar qattiq moslamalarni (karkaslarni) kiymaydigan bo'ldi, bu kiyimni qulay va oddiyoq qildi. X1X asrni 80–chi yillarida ayollar modasiga erkaklar kostyumini bichimini eslatadigan kostyum kirdi: astarli jaket va to'g'ri shaklli taxlamali yoki taxlamasiz

yubka. Shunday kostyumni odatda erkak ustalari tikishgan. Ingliz kostyumi ko'zga tashlanmaydi, shuning uchun yorqin emas, yo'l -yo'l yoki katak -katak gazlamalari qo'llanadi.

Asosiy qism.O'zbekiston Respublikasi kiyim eksport qilish bo'yicha rivojlanib kelayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Jahon andozalariga mos keladigan, yuqori sifatli kiyim ishab chiqarish konstruktor va dizaynerlar oldiga mavjud sohani takomillashtirishdek muhim e'tibor qaratilishi talab etilmoqda.

Tikuvchilik sanoatida ishlab chiqariladigan kiyimlar faqat tipavoy qomatlarga, ya'ni mushaklar rivojlanishi me'yorda, yog' qatlamining to'planishi bo'yicha ozg'in, kelishgan, to'la va semiz, yelka balandligi o'rtacha va umurtqa pog'onasi konturi normal bo'lgan qomatlarga moslab tikiladi. Ularning katta yoshli aholi orasida uchrash chastotati 25-30%dan oshmaydi. Buning ma'nosi shuki, iste'molchilarning atigi uchdan biri sanoatda ishlab chiqarilgan, tana ustida yaxshi o'rnashadigan, ergonomik va standart talablariga mos bo'lgan kiyimlar bilan ta'minlangan. Shunga ko'ra standart o'lchovli razmer parametrlari bilan tavsiflanuvchi, sanoatda ommaviy ravishda kiyim ishlab chiqarish uchun qabul qilingan normal qomatlarni tipavoy qomatlar deb atash mumkin.

Qomat tuzilishi inson tanasining yuqori tayanch uchastkasi razmeri va xajmiy shakliga hamda kiyim balansiga va uning qomatda o'rnashuvini belgilovchi konstruksiyalashdagi qator muxim tana o'lchamlariga ta'sir ko'rsatadi. Kiyim statikada qomatga mos kelmasa, balans buzilib, qator nuqsonlar paydo bo'ladi. Natijada bort chetlari, yon choklar, yeng vertikalidan og'adi, yoqaning bo'yinni qoplash zichligi o'zgarib, etak chizig'i gorizontol holatini buziladi. Bu og'ishlar balans nuqsonlari deb ataladi va kiyim tashqi ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizda eng katta muammo ham shunda. Ayollarda ortiqcha vazn nafaqat tipavoy qomatni buzilishiga, bundan tashqari, salomatligimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'krak aylanasi, bel aylanasi, bo'ksa aylanasi muammolar bo'lganligi sababli, bizda ayollar klassik liboslari ishlab chiqarish korxonalari rivojlanmagan. Agar biz ayollar ortiqcha vazn muammosini bartaraf etsak, ayollar klassik liboslarini ishlab chiqarishni, ko'plab korxonalar yo'lga qo'ygan bo'lar edi. Buning natijasida esa yurtimiz iqtisodiyotiga yanada rivoj qo'shgan bo'lamiz.

References:

1. D.O' Aripjanova. "Turli qomatlarga kiyimlarni konstruksiyalash"-Namangan 2020-y.
2. Q.M. Xoliqov, S.U. Rahmatova. "Dizayn nazariyasi va metodologiyasi asoslari"-Namangan 2020.

3. X.X. Kamilova, N.K. Xamrayeva. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” – Toshkent. 2011.